Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
<i>Jurayeva Muhayyo Nematillayevna</i>	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
<i>Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
<i>Turdiyev Umiddjon Kamoliddinovich</i>	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
<i>Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
<i>Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli</i>	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
<i>Yuldasheva Gulsanam Arken qizi</i>	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
<i>Бахриева Шахноза Давроновна</i>	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
<i>Равшанова Иноят Эркиновна</i>	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
<i>Тагаева Тамара Баходировна</i>	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
<i>D. S. Zokirova</i>	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
<i>Egamberdiyev Umidebek Xo'jayevich</i>	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
<i>Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi</i>	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi</i>	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
<i>Rustemov Muxamed Biysenbayevich</i>	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
<i>Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna</i>	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
Iminova Z. B.	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
Kalmuratovna Venera Sultanova	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	



RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li

GulDU mustaqil izlanuvchisi, Fizika kafedrası

ORCID: 0009-0001-0002-1800

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilingan. Raqamli ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, fizika ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hamda bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyani shakllantirish zarurati yoritilgan. Raqamli muhitda o'qituvchilarning texnik, didaktik va psixologik tayyorgarligini uzviy rivojlantirishga doir ilmiy asoslar keltirilgan. Shuningdek, raqamli stressni yengish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tahliliy faoliyatni shakllantirish va onlayn ta'limda samarali muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha pedagogik yondashuvlar tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari raqamli pedagogika sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, fizika ta'limi, raqamli kompetensiya, psixologik tayyorgarlik, pedagogik faoliyat, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of preparing future physics teachers for professional activity in a digital learning environment. It highlights the specific features of digital education, opportunities for integrating digital technologies into physics teaching, and the necessity of developing digital competence among future teachers. The study substantiates the integrated development of technical, didactic, and psychological readiness of teachers in a digital context. Moreover, the article suggests pedagogical approaches aimed at overcoming digital stress, fostering creative thinking, enhancing analytical skills, and ensuring effective communication in online learning. The findings contribute to improving the professional training of future physics teachers in the context of digital pedagogy.

Key words: digital learning environment, physics education, digital competence, psychological readiness, pedagogical activity, innovative educational technologies.

Аннотация: В статье анализируются психологические и педагогические основы подготовки будущих учителей физики к профессиональной деятельности в условиях цифровой образовательной среды. Рассматриваются особенности цифрового обучения, возможности интеграции цифровых технологий в преподавание физики, а также необходимость формирования цифровой компетентности у будущих педагогов. Обосновывается важность комплексного развития технической, дидактической и психологической готовности учителей в цифровой среде. Кроме того, предлагаются педагогические подходы, направленные на преодоление цифрового стресса, развитие творческого мышления, аналитической деятельности и обеспечение эффективного взаимодействия в онлайн-обучении. Полученные результаты способствуют совершенствованию профессиональной подготовки будущих учителей физики в условиях цифровой педагогики.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, преподавание физики, цифровая компетентность, психологическая готовность, педагогическая деятельность, инновационные образовательные технологии.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim muhiti (masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, onlayn test tizimlari) o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, bo'lajak fizika o'qituvchilarini bunday muhitda ishlashga psixologik va pedagogik jihatdan tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Maqolaning maqsadi – raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda samarali yondashuvlarni asoslab berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli ta'lim sharoitida fizika fanini samarali o'qitish bo'yicha tadqiqotlar ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Xushvaqtov B. N. fizikaning "Optika" bo'limini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning kuzatish va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi (2020).

Sheraliyev S. S. elektron qo'llanmalar va virtual resurslar orqali "Tebranish va to'lqinlar" bo'limi mazmunini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni asoslab bergan (2019).

Shoyzakova H. Y. virtual laboratoriyalar fizik jarayonlarni modellashtirish va xavfsiz tajribalar o'tkazish imkoniyatini berib, talabalarning tajribaviy faoliyatga qiziqishini oshirishini ilmiy dalillar bilan ko'rsatgan (2023). Bu tadqiqotlar AKT vositalarining fizika ta'limida muhim didaktik imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Psixologik-pedagogik qarashlar bo'yicha Sharipov Sh. S. o'quvchilarda ijodkorlik va izlanish faolligini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchining fasilitator sifatidagi rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi (2012).

Shayzakova D. A. shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va o'qituvchi kompetensiyasining uzviy rivoji ta'lim sifatini belgilashini asoslagan (2020).

Boqiyev S. T. fizika ta'limida integratsiyalashgan metodlar o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam berishini qayd etadi (2025).

Shoyzakova H. Y. raqamli pedagogik vositalardan foydalanish o'qituvchilarning texnik, didaktik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishi, masofaviy ta'limda samarali natijalar berishini ta'riflaydi (2022).

Ushbu ilmiy yondashuvlar raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining psixologik-pedagogik tayyorgarligi kompleks shakllanishi zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorgarligini baholash uchun aralash metodlar qo'llanildi. Ma'lumotlar birinchi navbatda ilmiy adabiyotlar, davlat ta'lim standartlari va zamonaviy raqamli ta'lim platformalarining tahlili orqali yig'ildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida fizika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga so'rovnoma o'tkazilib, ularning raqamli kompetensiya holati, motivatsiyasi va psixologik tayyorgarligi o'rganildi. So'rovnoma natijalari Likert shkalasi asosida qayta ishlanib, talabalar o'zini-o'zi baholashi va real ko'nikmalari o'rtasidagi tafovutlar aniqlanadi.

Tajriba-sinov ishlari davomida virtual laboratoriyalar va raqamli simulyatsiyalardan foydalanish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi hamda talabalarning raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari kuzatildi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili orqali kontent-analiz usulida qayta ishlanib, talabalar faoliyatidagi pedagogik, texnik va psixologik tayyorgarlik darajasi kategoriyalar bo'yicha guruhlashtirildi. Statistika tahlil dasturlari yordamida natijalarning ishonchiligi tekshirilib, raqamli ta'lim vositalarining fizika o'qituvchilari tayyorgarligiga ta'siri aniqlashtirildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar raqamli ta'limning ta'sir mexanizmlarini kompleks o'rganishga imkon berdi va natijalar asosida muammolar hamda takomillashtirish yo'nalishlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli ta'lim muhiti tushunchasi va uning xususiyatlari. Raqamli ta'lim muhiti – bu o'qituvchi va talabalar o'rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali tashkil etilgan interaktiv o'quv jarayoni bo'lib, u o'qituvchi va talabalar o'rtasida masofaviy, lekin faol muloqot imkonini yaratib beradi. Fizika ta'limida bu muhit laboratoriya tajribalarini xavfsiz jihatdan virtual sharoitda bajarish, jarayonlarni modellashtirish va natijalarni tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Unga masofaviy ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom), virtual laboratoriyalar (PhET, Algodoo) va elektron resurslar kiradi. Fizika ta'limida bu vositalar tajribalarni xavfsiz va tejankor tarzda amalga oshirish, kuzatuv va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Raqamli ta'lim muhiti an'anaviy ta'limga nisbatan ta'limning ochiqligi, qulayligi, vaqt va joy bo'yicha moslashuvchanligi bilan afzalroq hisoblanadi. Fizika fanida raqamli vositalar yordamida laboratoriya tajribalarini PhET simulyatorlari orqali elektromagnit induksiya yoki Nyuton qonunlari kabi qonunlarni interaktiv tarzda o'rganish mumkin.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarida raqamli kompetensiya. Raqamli kompetensiya – o'qituvchining raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. Bo'lajak fizika o'qituvchisining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish dars jarayonini intensiv va samarali tashkil etishga yordam beradi. Chunki raqamli kompetensiyaga ega o'qituvchi o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanadi, murakkab fizik hodisalarni virtual modellar orqali tushuntira oladi hamda talabalarni faol o'quv faoliyatiga jalb etadi. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar yoki onlayn tajriba platformalaridan foydalanish darsning dinamikligini oshiradi, vaqtni tejaydi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Natijada, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan darslar o'quvchilarda fizika faniga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va o'quv natijalarining sifatini sezilarli darajada oshiradi.



Asosiy komponentlar:

1. Texnik tayyorgarlik (AKT vositalaridan foydalanish);
2. Didaktik tayyorgarlik (raqamli vositalarni o'quv maqsadiga moslashtirish);
3. Psixologik tayyorgarlik (innovatsion muhitda ishlashga tayyorlik).

Raqamli kompetensiyaning xalqaro tasniflari orasida Yevropa Ittifoqining DigCompEdu modeli va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan o'lchov mezonlari muhim o'rin tutadi. Ushbu modellar o'qituvchining texnologiyadan foydalanish darajasi, raqamli didaktik ko'nikmalari hamda o'quvchilar bilan onlayn muloqot samaradorligini baholashga qaratilgan. Fizika o'qituvchisi uchun raqamli kompetensiya nimalarni o'z ichiga oladi – masalan, virtual laboratoriya tuzish, onlayn test yaratish, ma'lumot tahlili qilish.

Psixologik asoslar. Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchidan moslashuvchanlik, ijodkorlik, mustaqillik kabi sifatlarni talab qiladi. O'qituvchining AKT bilan ishlash malakasi rivojlangan bo'lsa, u raqamli ta'lim muhiti va zamonaviy dars jarayoniga tezroq moslasha oladi hamda o'qitish samaradorligini oshiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli stress va motivatsiya pasayishi kabi muammolar kuzatilishi mumkin. Chunki o'qituvchining dars jarayonida va darsdan tashqari vazifalarni berishda raqamli vositalardan muntazam foydalanishi, elektron topshiriqlarni tayyorlashi, berilgan vazifalarni tekshirishi hamda talabalar tomonidan yuborilgan xabarnomalarga javob berishi ruhiy charchoq va zo'riqishga olib kelishi mumkin. Bu esa natijada ish yoki o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining bunday muammolarga duch kelmasligi uchun ularda ish va dam olish o'rtasida aniq chegaralar qo'ya bilish, vaqtincha internetdan uzoqlashish, ekran vaqtini cheklash, xabarnomalarga belgilangan vaqt oralig'ida javob berish hamda ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish raqamli stressning oldini olishga xizmat qiladi.

Pedagogik asoslar. Raqamli ta'lim sharoitida fizika o'qituvchisining pedagogik faoliyati tubdan yangilanmoqda. Avvalgi an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, o'qituvchi endi bilimning yagona manbai emas, balki ta'lim jarayonining fasilitatori sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa o'quvchilarning tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan, muammolarni hal qila oladigan shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishdan tashqari, o'quvchilarni motivatsiyalash, ularning kognitiv faolligini oshirish va raqamli muhitda samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga mas'ul bo'ladi. Pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Metodik tayyorgarlik – raqamli darslarni loyihalash, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalardan didaktik maqsadga muvofiq foydalanish malakasini anglatadi. Bu tayyorgarlik o'qituvchidan texnologik vositalarni o'quv maqsadlari bilan uyg'unlashtirishni, o'quvchilar uchun mazmunli hamda qiziqarli o'quv vaziyatlarini yaratishni talab qiladi.

Kommunikativ tayyorgarlik – onlayn muhitda samarali muloqot qilish, o'quvchilar bilan raqamli platformalar orqali fikr almashish, kollaborativ topshiriqlarni tashkil etish va o'quv jarayonida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Raqamli o'quv jarayonida o'qituvchining nutq madaniyati, muloqot uslubi va elektron kommunikatsiya etikasi alohida ahamiyatga ega.

Refleksiv tayyorgarlik – o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, dars samaradorligini baholash, o'z ustida muntazam ishlash hamda raqamli ta'limning yangi tendensiyalariga moslashish qobiliyatini bildiradi. Refleksiya o'qituvchiga dars jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun to'g'ri yondashuvlarni tanlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim uchun pedagogik texnologiyalarni qo'llash kompetensiyasi ham muhim omil hisoblanadi. Bu o'qituvchidan o'quvchilar uchun shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va individual o'quv trayektoriyalarini yaratishni talab qiladi. Raqamli baholash tizimlaridan foydalanish, o'quvchilar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish va o'zlashtirish darajasini aniqlash ham pedagogik tayyorgarlikning zamonaviy talablaridandir. Shuningdek, raqamli muhitda o'qituvchi o'quvchilarni akademik halollik, raqamli xavfsizlik, mediama'rifat va internet etikasi kabi yo'nalishlarda ham tarbiyalashi zarur. Chunki raqamli vositalardan noto'g'ri foydalanish, plagiat, sun'iy intellektga haddan tashqari tayanish kabi muammolar raqamli ta'limda tez-tez uchraydi. Umuman olganda, raqamli ta'lim sharoitida fizika o'qituvchisining pedagogik tayyorgarligi kompleks jarayon bo'lib, u o'quv jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarni faol ta'limga jalb qilish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Shu bois pedagogik asoslar bo'lajak o'qituvchining raqamli ta'limga tayyorgarligini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Amaliy yondashuvlar. Oliy ta'limda "Raqamli pedagogika", "Fizikada raqamli texnologiyalar" kabi fanlarning joriy etilishi bo'lajak fizika o'qituvchilari tayyorlov tizimiga bir qator muhim afzalliklar olib kiradi. Avvalo, ushbu fanlar o'qituvchilarga zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar beradi, bu esa ularning raqamli kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday fanlar orqali talaba virtual laboratoriyalarni qo'llash, simulyatsiyalar yordamida tajribalar o'tkazish, elektron platformalarda dars loyihalash va raqamli baholash usullaridan foydalanish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, mazkur fanlar



o'qituvchining dars jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida loyihalashiga, masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishiga imkon yaratadi. Natijada o'quv jarayonining interaktivligi oshadi, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi kuchayadi, murakkab fizik jarayonlarning vizual tushuntirilishi esa o'zlash-tirish darajasini sezilarli yaxshilaydi. Bundan tashqari, virtual laboratoriyalar asosida mustaqil ishlarni tashkil etish bo'lajak fizika o'qituvchilarining amaliy tayyorgarligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Avvalo, virtual tajribalar talabalarga real laboratoriyada bajarish qiyin bo'lgan yoki xavfli bo'lgan jarayonlarni xavfsiz, iqtisodiy tejamkor va takroriy ravishda bajarish imkonini beradi. Bu esa nazariy bilimlarni chuqurroq anglash, fizik jarayonlarning modelini yaratish va ularni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, virtual laboratoriyalar o'quvchilarning mustaqil izlanish, eksperimental madaniyat, analitik fikrlash va muammo yechish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Talaba tajribani o'zi boshqarishi, parametrlarni o'zgartirib natijalarni taqqoslashi va xulosa chiqarishi orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli ta'lim fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini samarali qiladi, ularni virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv vositalardan foydalanishga o'rgatadi. Psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi o'qituvchining moslashuvchanligi, motivatsiyasi va fasilitator sifatidagi rolini mustahkamlaydi. Natijada, bo'lajak o'qituvchi zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan, mustaqil fikrlashni rivojlantira oladigan va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xushvaqto'v B. N. Fizikaning "Optika" bo'limini noan'anaviy o'qitish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Buxoro, 2020. – 46 b.
2. Sharipov Sh. S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dokt. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 46 b.
3. Shayzakova D. A. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar asosida kimyo fanini o'qitish mazmunini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida): Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand, 2020. – 48 b.
4. Sheraliyev S. S. Fizikaning "Tebranish va to'lqinlar" bo'limini o'qitishdagi elektron qo'llanmalarning mazmuni va metodikasini takomillashtirish (akademik litseylar misolida): Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 8 b.
5. Shoyzakova H. Y. The effectiveness of virtual laboratories in teaching molecular physics. Journal of Pedagogical Research (Scopus Indexed). – 2023. Retrieved from: <http://scholar.google.com>.
6. Shoyzakova H. Y. Raqamli pedagogik vositalar yordamida fizika fanini o'qitishning innovatsion yondashuvlari. OAK tavsiya etilgan mahalliy jurnal. – 2022. Retrieved from: <http://scholar.google.com>.
7. Boqiyev S. T. Fizikani integratsiyalab o'qitishda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish. OAK tavsiya etilgan mahalliy jurnal. – 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.